Shaxsda agressiv xulq-atvorni shakllanishi borasida xorij psixologlarining yondashuvlari	582
<i>Xojiakbarova Dildora Abdug'afforovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish texnologiyalari.....	586
<i>Sodiqova Shoista Akbarovna, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi</i>	
Til ta'limining hozirgi holati.....	590
<i>Kushkarbekova Marjan Usenovna</i>	
Talabalarning ijodiy rivojlanishida kretivlikning asosiy yo'nalishlari	593
<i>Alimova Gulchehra Qobilovna</i>	
Xorijiy tillarni o'rganishda yozma nutqning ahamiyati.....	596
<i>Safarova M. A.</i>	
Qoraqalpoq sinflarda o'zbek tili fanini o'qitishning lingvodidaktik asoslari.....	600
<i>Venera Allashova Tanirberdievna</i>	
Интеграция искусственного интеллекта в образование: польза или вред.....	602
<i>Karimbayev Atabek Merdanovich</i>	
Tibbiy kimyo darslarida talabalarning klinik tafakkurini rivojlantirish usullari	606
<i>Xolmurodova D. K., Safarova N. S.</i>	
Intellektual avlod – sog'lom jamiyat poydevori: tibbiyot talabalarining o'quv jarayonida kommunikativ kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar.....	610
<i>Tursunbekova Nozima</i>	
Sportning voleybol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish	613
<i>Roziqov Normurod Elmonovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	618
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
Inklyuziv ta'lim sharoitida alohida yordamga muhtoj bolalar integratsiyasi va korreksiyasi.....	622
<i>Olimova Nodirabegim Ibroximjon qizi, Sulaymonova Shahnoza Alisher qizi</i>	
Sportning gandbol turi bo'yicha talabalar o'rtasida musobaqalar tashkil etish va o'tkazish texnologiyalarini takomillashtirish	626
<i>Berdiyev Jamshid Baxriddinovich</i>	
18–21 yoshdagi talaba futbolchilarning musobaqa faoliyati jarayonida hujum harakatlarining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari	631
<i>Djemilov Temur Rasimovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakatli o'yin vositalari orqali sog'lomlashtiruvchi mashg'ulotlar samaradorligining ahamiyati.....	636
<i>Eshpo'latova Dilnoza Mamaniyoz qizi</i>	
Ota-ona bilan munosabatlarning maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishiga ta'siri.....	641
<i>Izaitullayeva Lazokat Eshimboyevna</i>	
Yosh futbolchilarning jismoniy tayyorligini oshirishda kompleks mashg'ulot tizimining samaradorligi.....	646
<i>Zaripova Farida Abdullayevna, Kamoliddinov Sharif Kamoliddin o'g'li</i>	
Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida sport gimnastikasi mashg'ulotlarini rejalashtirishning ilmiy-uslubiy asoslari.....	650
<i>Mirzayev Dilshod Xamidovich</i>	
Mahalla – “jonli muzey”: 6–7 yoshli bolalarda milliy g'ururni lokal identifikatsiya orqali kuzatish modeli.....	654
<i>Omondavlatova Diyora Otabekovna</i>	
Yengil dizatriyal bolalarda nutqning bo'g'in tuzilishi va uning shakllanish xususiyatlari.....	658
<i>Pardayeva Muxlisa Furqat qizi</i>	
Ochilmagan bo'z qalblar hazor.....	662
<i>Eshpulatova Saodat Maxmatovna</i>	



Speaking Fluency Development Based on CEFR Linguistic.....	665
Abdullayeva Charos Farkhodovna	
Integrating Visual-Based Activities in English Lessons for Primary School Pupils	670
Ataullayev Fazliddin	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligiga ta'siri	674
Bovanova Umida Abdurahobovna, Ashurova Dildora Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli	679
Bovanova Umida Abdurahobovna, Radjabova Gulchexra Xalbayevna	
Lotin tilini o'qitishda metodlarning qo'llanilishi va uning ahamiyati	683
Eshmurodova Shirin Oybekovna	
Nutqiy kompetensiyaning integratsion o'qitishda yangi metodlari va usullari	686
Fayzullayev Sarvar Ibrohim o'g'li	
Talabalarda affilativ motivatsiyani rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari va komponentlari	689
Omonova Nilufar Omon qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni	694
Ovxunov Iqboljon Abdunabiyeovich, Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi	
Tikuv texnologiyalari asosida o'quvchilarning amaliy topshiriqlar bajarish ko'nikmalarini rivojlantirish	698
Qulmamatova Xurshida Abduxamidovna	
Bo'lajak muhandislarning xorijiy til bilish ko'nikmalarini rivojlantirishda individual va differensial yondashuvlar uyg'unligi	702
Qurbonova Nafisa Saidjonovna	
Tárbiya párin oqítw arqalı oqíwshlardín kreativ qábiletin rawajlandırıw.....	706
Reymova Gulaim	
Mirishkor toponimlarining leksik-semantik xususiyatlari	710
Ro'ziyeva Hilola Fayzulla qizi	
Taekvondochilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish metodikasi	714
Saydaxmadov A'zamxon Valixonovich, Qosimova Nargizaxon Rustamxon qizi	
The Role of Music in Human Spiritual Development and Educational Significance.....	717
Shokirkhonov Bakhtiyorxon Botirkhonovich	
Boshlang'ich ta'limda tabiatga ongli munosabatni shakllantirishning nazariy metodologik asoslari.....	722
Sayfedinova Dildora Ikramiddinova	
Gematologik-onkologik kasalliklarga chalingan o'quvchilar uchun gosptal maktablarida ta'lim jarayonini tashkil etish	726
Isamuxamedova Dildora Raxmatillayevna, Qayumova Sabrina To'liqin qizi	
Neologizmlar – badiiy matnda uslubiy vosita sifatida	730
Ibragimova Shoira Normuminovna	
Optimisation of Technical and Physical Potential in the Implementation of the Rotational Method of Pushing the Core.....	733
Tajimbetov Anvar Tengelbayevich	
Magistrlarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini shakllantirish omili sifatida.....	736
Turmatov Jaloliddin Raxmatullayevich	
Raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirish modeli	743
Usmonova Kamola Erkinovna	
Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining ijtimoiy lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish mexanizmlari.....	749
X. A. Suyunova	
Tinglab tushunish kompetensiyasini rivojlantirishda autentik materiallarning o'rni	752
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Motivatsiya – inson faoliyatini harakatga keltiruvchi psixologik omil sifatida	756
Yo'ldoshev Javlon Ablanazar o'g'li	

Цифровые технологии и искусственный интеллект в обучении иностранным языкам: теоретико-методологический анализ	760
Абидова М. И., Абидова Д. М.	
Сюжетно-ролевая игра как способ психоэмоционального развития детей дошкольного возраста, находящихся на длительном лечении.....	764
Амитова Майисия Рахмателлаевна	
Эффективные приемы презентации лексики на уроках иностранного языка	767
Гилязиева Насиба Михайловна	
Речевые действия в методике формирования коммуникативной компетенции при обучении РКИ...	770
Ислямова Сония Юнусовна	
Трансформация ценностей, связанных с физической активностью, у представителей разных поколений: результаты современных исследований	779
У. Ш. Салимов	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA GAMIFIKATSIYA ELEMENTLARIDAN FOYDALANISHNING O'RNI

Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich

Andijon davlat universiteti

“Kompyuter injiniringi” kafedra mudiri, PhD, dotsent

Qodirova Sarvinoz Bahodir qizi

Andijon davlat universiteti,

“Kompyuter tizimlari va ularning dasturiy ta'minoti” 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'lim samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning ahamiyati o'rganilgan. Ball tizimi, reytinglar, vazifalarni bajarish orqali mukofotlash va yutuqlar tizimi kabi gamifikatsiya vositalari o'quvchilarning motivatsiyasini oshirish, mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish, shuningdek, ta'lim jarayonini interaktiv hamda individual shaklda tashkil etishga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari xorijiy tajribalar va O'zbekiston maktablarida o'tkazilgan empirik eksperimentlar asosida tahlil qilinib, gamifikatsiya elementlarini samarali joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, gamifikatsiya, o'quv motivatsiyasi, ta'lim samaradorligi, interaktiv o'qitish, pedagogik texnologiyalar.

Abstract: This article examines the role of gamification elements in enhancing learning effectiveness among primary school students. It highlights how incorporating game-based techniques into the educational process can increase student motivation, promote active participation, and improve learning outcomes. The paper also provides practical recommendations for applying gamification in interactive teaching in order to create a more engaging and effective learning environment.

Key words: primary education, gamification, student motivation, learning effectiveness, interactive teaching, pedagogical technologies.

Аннотация: В статье рассматривается роль элементов геймификации в повышении эффективности обучения у учащихся начальных классов. Подчеркивается, что интеграция игровых техник в образовательный процесс способствует повышению мотивации учащихся, активному участию и улучшению учебных результатов. В работе представлены практические рекомендации по применению геймификации в интерактивном обучении с целью создания более увлекательной, индивидуализированной и эффективной образовательной среды для младших школьников.

Ключевые слова: начальное образование, геймификация, мотивация учащихся, эффективность обучения, интерактивное обучение, педагогические технологии.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida o'quvchilarning nafaqat bilim olishlari, balki faol ishtirok etishlari, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko'nikmalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biridir. Boshlang'ich sinf davri bolaning intellektual va psixologik rivojlanishida eng muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli, ushbu yoshdagi o'quvchilarda ta'lim samaradorligini oshirish va o'quv motivatsiyasini kuchaytirish masalalari pedagogik tadqiqotlarning markazida turadi ^[1]. So'nggi yillarda ta'lim sohasida gamifikatsiya yondashuvi keng qo'llanilmoqda. Gamifikatsiya elementlari – ball tizimi, reytinglar, vazifalarni bajarish orqali mukofotlash, yutuqlar va badge'lar – o'quvchilarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil ishlashga rag'batlantirish va ularning ijodiy hamda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali vositasi sifatida tan olinmoqda ^{[2] [3]}.



Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsiya elementlaridan foydalanish orqali ta'lim samaradorligini oshirishning nazariy asoslari, amaliy tajribalar va pedagogik samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasi, bilim olish jarayoni va interaktiv metodlardan foydalangan holdagi natijalar empirik jihatdan ko'rsatib beriladi. Shu bilan birga, maqola ta'lim jarayonida gamifikatsiya elementlarini tatbiq etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni ham taqdim etadi ^[4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Boshlang'ich ta'limda gamifikatsiya elementlaridan foydalanish masalasi so'nggi yillarda ko'plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Xususan, Sebastian Deterding, Dixon, Khaled va Nacke (2011) gamifikatsiyani o'yin dizayni elementlarini noo'yin kontekstga qo'llash sifatida izohlab, uning motivatsion mexanizmlarini ilmiy asoslab bergan. Ularning ta'kidlashicha, ball tizimi (points), darajalar (levels), reyting jadvali (leaderboard) va yutuqlar (badges) o'quvchilarning ichki va tashqi motivatsiyasini faollashtiradi ^[5].

Karl Kapp (2012) ta'lim jarayonida gamifikatsiya elementlarini qo'llash orqali o'quvchilarning faolligi va bilimni o'zlashtirish darajasi oshishini empirik asosda ko'rsatgan. U, ayniqsa, mukofot tizimi va progress indikatorlarining boshlang'ich yoshdagi bolalarda o'quv jarayoniga ijobiy ta'sir qilishini ta'kidlaydi ^[6].

Hamari, Koivisto va Sarsa (2014) tomonidan o'tkazilgan meta-tahlil natijalariga ko'ra, gamifikatsiya elementlari qo'llanilgan ta'lim muhitida o'quvchilarning motivatsiyasi va ishtiroki sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, reyting va badge tizimi o'quvchilarda raqobat va o'zini namoyon qilish ehtiyojini kuchaytirishi aniqlangan ^[7].

Boshlang'ich ta'lim kontekstida Bevan va Capraro (2021) "problem posing" (muammo qo'yish) faoliyatini o'yin elementlari bilan integratsiya qilish orqali o'quvchilarning matematik tushunchalarni chuqurroq anglash va ijodiy fikrlash ko'rsatkichlari oshganini aniqlagan. Shuningdek, Ayllón va Gómez (2016) matematik muammolarni o'yinli shaklda tuzish va yechish ijodiy tafakkurni rivojlantirishga bevosita ta'sir qilishini ilmiy asoslab bergan ^[8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'zbekiston sharoitida ham gamifikatsiya elementlarini qo'llash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mahalliy tadqiqotlarda ball tizimi, interaktiv viktorinalar, raqamli platformalar va rag'batlantiruvchi reyting tizimlari boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsga bo'lgan qiziqishini oshirishi, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishi va ta'lim samaradorligini yaxshilashi qayd etilgan. Ilmiy yangilik sifatida gamifikatsiya elementlarini milliy ta'lim tizimiga moslashtirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda individual rag'bat mexanizmlarini ishlab chiqish zarurligi asoslab berilmoqda [9]. Shunday qilib, xorijiy va mahalliy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich ta'limda quyidagi gamifikatsiya elementlari eng samarali hisoblanadi: Ball tizimi (Points system) Reyting jadvali (Leaderboard) Badge va yutuqlar tizimi (Badges & Achievements) Darajalar va bosqichlar (Levels & Progression) Muammo qo'yish va o'yinli topshiriqlar (Problem-based gamified tasks).

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida dars jarayonlarini gamifikatsiya elementlari orqali olib borish o'quvchining mavzuni o'zlashtirish samaradorligini oshirishi, o'quvchilarning o'z-o'zini baholash, ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalari va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkinligi ko'plab tadqiqotlar bilan tasdiqlangan. So'nggi tadqiqotlarda (masalan, 2020-2025-yillar oralig'ida) gamifikatsiya yondashuvlarining boshlang'ich ta'limda tanqidiy fikrlash va motivatsiya mexanizmlariga ta'sirini o'rganish uchun Systematic Literature Review (SLR) metodi qo'llanilgan. Bu usul yordamida turli mamlakatlardagi (xususan, chet ellardagi) tadqiqotlar solishtiriladi va ularning umumiy tendensiyalari aniqlanadi – bu ilmiy yangiliklarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ba'zi tadqiqotlar gamifikatsiya elementlarini real ta'lim jarayoniga integratsiya qilib, ularning o'quvchilarning motivatsiyasi, faolligi va o'quv natijalariga qanday ta'sir qilishini o'rganish uchun case study yondashuvini qo'llaydi. Masalan, raqamli savodxonlikni rivojlantirishda gamifikatsiya asosidagi o'yin mexanizmlari bilan ishlash metodikasi bolalarda qiziqish va ishtirok darajasini oshirganligi aniqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Gamifikatsiyaning boshlang'ich sinf o'quvchilari tajribasida qo'llanilishi ko'pincha eksperiment shaklida o'tkaziladi: o'quvchilarni tajriba va nazorat guruhlariga ajratish, ilg'or gamifikatsiya elementlarini darsga tatbiq etish, so'ngra ularning o'qish motivatsiyasi va akademik natijalari bo'yicha statistik tahlil olib borish metodlardan biridir. Bu metod o'quvchilarning gamifikatsiya bilan ishlashdan oldingi va keyingi holatlarini aniq solishtirish imkonini beradi. Bu yondashuv haqida umumiy izoh SLR tahlillarida ham qayd etilgan.

Xorijiy tadqiqotlar sohasida Yayuk va boshq. (2020) tomonidan olib borilgan izlanishda boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan gamifikatsiya yondashuvi asosida o'yin elementlari (badge'lar, darajalar, o'yin ssenariysi) qo'llanilib, bu yondashuv o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalari hamda muammolarni hal etish qobiliyatini sezi-

larli darajada oshirganligi aniqlangan. Tadqiqotda badge va reyting tizimi muammolarni hal etishda hamkorlikni rag'batlantirgani qayd etilgan.

Bundan tashqari, Pérez López va boshq. (2022) ishida maxsus gamifikatsiya platformasi 1-4-sinf o'quvchilari bilan sinovdan o'tkazilib, test va so'rovnoma natijalari gamifikatsiya elementlari bilan ishlangan guruhda mavzuni o'zlashtirish ko'rsatkichlari 15-22% gacha yuqori bo'lganini ko'rsatdi. Shu bilan birga, badge'lar va ball tizimi o'quvchilarning o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini yaxshilashga xizmat qilgani qayd etildi ^[8].

Shuningdek, Hamari va Koivisto (2021) tomonidan olib borilgan meta-tahlil gamifikatsiya elementlarining ta'lim samaradorligiga ta'sirini keng ko'lamda o'rganib, ball tizimi, progress indikatorlari va darajalar ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil ishlashi, o'zaro hamkorligi va ta'limga bo'lgan qiziqishini oshirishda mustahkam pedagogik vosita ekanligini tasdiqladi ^[4].

O'zbekiston sharoitida ham aniq yillar ichida amalga oshirilgan izlanishlar gamifikatsiya yondashuvining samaradorligini tasdiqlaydi. 2024-yilda olib borilgan tajribada gamifikatsiya elementlari bilan tashkil etilgan darslar qiziqarli interaktiv struktura hamda badge va ball tizimlari orqali o'quvchilarning mavzuni o'zlashtirish darajasi va motivatsiyasi an'anaviy metodlar bilan solishtirganda ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Bu izlanishda o'quvchilarning faolligi va bilim natijalari yaxshilangani qayd etildi. Xorazm viloyatida 2023-yilda o'tkazilgan tadqiqotda gamifikatsiya elementlarini ingliz tili darslariga tatbiq etish orqali o'quvchilarning til ko'nikmalari, hamkorlikdagi faoliyati va o'z-o'zini baholash darajasida sezilarli o'sish kuzatilgan ^[10].

Shuningdek, 2025-yilda chop etilgan metodik izlanishlarda badge, reyting va interaktiv topshiriqlar elementlarini boshlang'ich sinf darslarida qo'llash orqali o'quvchilarning muammolarni hal etish ko'nikmalari va ijtimoiy hamkorlik darajasini oshirganligi qayd etildi. Umuman olganda, chet el va O'zbekiston miqyosidagi 2020-2025-yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gamifikatsiya elementlarini ta'lim jarayoniga kiritish:

- mavzuni tez va chuqur o'zlashtirish samaradorligini oshiradi;
- o'z-o'zini baholash va mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi;
- ijtimoiy hamkorlik va muammolarni hal etish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Bu ilmiy natijalar gamifikatsiya yondashuvini boshlang'ich sinf ta'limi samaradorligini oshirishning innovatsion va ishonchli pedagogik mexanizmi sifatida ko'rsatadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikr va mulohazalar shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsiya elementlari (ball tizimi, badge'lar, darajalar va reytinglar) asosida darslarni tashkil etish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu yondashuv o'quvchilarda mavzuni chuqur tushunish, mustaqil fikrlash va muammolarni innovatsion usullar bilan hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, o'quvchilar orasida ijtimoiy hamkorlik, o'zini o'zi baholash va motivatsiya darajasi oshadi. Yaqin yillardagi xorijiy va O'zbekiston tajribalari gamifikatsiya elementlarini qo'llash pedagogik natijalarni yaxshilash, darslarni qiziqarli va interaktiv qilish, shuningdek, o'quvchilarni faol va ijodiy ishtirok etishga rag'batlantirishda samarali ekanini tasdiqlaydi. Shu sababli, boshlang'ich ta'limda gamifikatsiyani tizimli ravishda joriy etish innovatsion pedagogik strategiya sifatida ahamiyatga ega. Umuman olganda, gamifikatsiya nafaqat akademik yutuqlarni oshiradi, balki o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiruvchi, ularni mustaqil va ijodkor shaxs sifatida shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi.

Kelajak avlodni har tomonlama yetuk, tafakkuri keng va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalashda boshlang'ich ta'limning, ayniqsa, o'quv darslari samaradorligini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning o'rni beqiyosdir. Shuning uchun o'qituvchilar dars jarayonlarini faqatgina an'anaviy usullarda emas, balki ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilishda, o'quvchilarning mavzuni tez va chuqur o'zlashtirishida, motivatsiya, o'zini o'zi baholash, faollik va ijtimoiy hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanib, o'quv materialini o'quvchilarni fikrlashga, tahlil qilishga va yangicha yechim topishga undaydigan shaklda berishlari lozim. Faqat shundagina biz mustaqil fikrlaydigan, ilm-fan va texnologiya rivojiga moslashuvchan, ijodkor yoshlarni voyaga yetkaza olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ayllón, M. F., Gómez, I. A., Ballesta-Claver, J. (2016). Mathematical thinking and creativity through mathematical problem posing and solving. *Journal of Educational Psychology-Propósitos y Representaciones*.
2. Bevan, R., Capraro, M. (2021). Posing Creative Problems: A Study of Elementary Students' Mathematics Understanding.
3. Deterding, S., Dixon, D., Khaled, R., Nacke, L. (2011). From game design elements to gamefulness: Defining gamification.



4. Hamari, J., Koivisto, J., Sarsa, H. (2014). Does gamification work? A literature review of empirical studies on gamification.
5. Hamari, J., Koivisto, J. (2021). Gamification in education: Systematic review and meta-analysis.
6. Kapp, K. M. (2012). The gamification of learning and instruction: Game-based methods and strategies for training and education.
7. Pérez López, R., et al. (2022). Gamification platforms in primary education: Enhancing engagement and learning outcomes.
8. Yayuk, E., et al. (2020). Gamified learning in primary school: Effects on social skills and problem-solving abilities.
9. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi metodik izlanishlari (2024-2025). Gamifikatsiya elementlarini boshlang'ich sinflarda qo'llash tajribasi.
10. Xorazm viloyati pedagogik tadqiqoti (2023). Gamifikatsiya asosida ingliz tili darslarida o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalari va o'zini o'zi baholash ko'rsatkichlari.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.